

Tilavov Tolibjon Baxtiyor o'g'li
Isroilov Ismatillo
Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotasiya: Ushbu maqolada sharqona ta'lim tizimining tarbiyaviy jihatlari ilmiy-nazariy tadqiq etilgan. Shu bilan birga , sharqona ta'lim tizimining tarbiyaviy jihatlarining roliga qaratilgan ustuvor vazifalar atroflicha tahsil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim va tarbiya, sharqona ta'lim, jadidlar, zamonaviy ta'lim, insonparvarlik, gumanizm, ta'lim tizimi, tarbiya tizimi.

Yurtimiz taraqqiyotida ta'lim, tarbiya va insoniylik tamoyillari nihoyatda asosiy ustun rolini o'ynaydi. Tarixan shakillangan ta'lim va tarbiya tizimi xalqimiz tomonidan qadryatlarimiz asoslariga ulanib ketgan. Bu esa sharqona ta'limning o'ziga xos hususiyatini namoyon qiladi. Sharqona ta'lim o'zining taraqqiyot nuqtasini IX -XII asrlarda va uzulishlar natijasida XV – XVI asrlarda ko'rsatgan bo'lsa, keying davrlarda

Rossiya imperiyasi va Sobiq Ittifoqning shovinistik imperialistik siyosati natijasida inqiroz holatiga kirib qoldi. Bu davirda amalga oshirilgan jarayonlar natijasida yurtimizda jadidchilik harakatlari vujudga kelib sharqona ta'lim tizimini yangitdan zamонавиу руҳда уйғотиш даврини бoshlab berishdi. Shu o'rinda ma'rifatparvar jadidbobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning 1914-yilda «Oyna» jurnali orqali «Muhtaram

yoshlarga murojaat» e'lon qilib, unda, jumladan, bunday deganlarini eslasak bo'ladi:

«Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib (maktab

– tahr.) – taraqqiyning boshlang’ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har bir millat eng avval, makotibi ibtidoisini (eski maktabini – tahr.) zamoncha isloh etib ko’payturmaguncha taraqqiy yo’lig’a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan (zamonaviy madaniyatdan – tahr.) mahrum qolub, sanoye‘ va maorif salohi ila (san‘at va ma’rifat quroli bilan – tahr.) qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko’rolmas»,[1] Mahmudxo’ja Behbudiylari kabi jadidlarimizning sa’yharakatlari bilan ta’lim tizimida o’ziga xos bo’lgan ajoyib zamonaviy ta’lim tizimiga asos solindi. Bu asoslar mustaqillikka erishganimizdan keyin milliy ta’lim tizimimizni shakilanishida asos bo’ldi. Mustaqillik sharofati bilan faqatgina jadidlar davrida asos bo’lgan ta’lim tizimi emas balki, hozirgi davr zamonaviy ta’lim tizmi ham milliy ta’lim tizimimizga kirib bordi. Bu esa albatta jadidlarimiz tomonidan ilgari surilgan insonparvarlik asosiga qurilgan ta’lim bilan zamonaviy gumanistik ta’limning asoslari bir ekanligi bilan bog’liqdir.

Darhaqiqat zamonaviy ta'limning shakillanishi natijasida vujudga kelgan ta'limdagi yutuqlar misli ko'rilmagan darajada yuqori nuqtalarga chiqib bordi. Bunda

ta’lim jarayoning o’ziga xos nuqtalari va ko’rinishlarini misol qilib olishimiz mumkin.

Bu esa O’zbekiston Milliy ta’lim tizimini ham o’z o’rnida zamonaviy ko’rinishlardo’zgarib borganini ko’rsatadi. Bunga misol tariqasida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O’zbekiston Respublikasida qabul qilinga 2019-yil sentyabrdagi—Ta’lim to’g’risida qonun va boshqa ko’plab huquq normalarini misol qilib olishimiz mumkin. Bu qonunlarga zamonaviy ta’lim turlari kiritilib zamonaviy ta’lim jarayoniniamalga oshirish ishlari jadalik bilan amalga oshirilayotganini qonun normalaridabelgilanganligi. Shu bilan birga davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ta’limning sofligini, xalqaro doiradagi qonunlarni va ta’lim islohatlarini

O’zbekiston hudududa izchilik bilan olib borilayotganini ko’rsatadi. Bu ishlarning huquqiy jihatdan belgilangan normalarga to’xtaladigan bo’lsak Konstitutsiyamizning 50-moddasida –“Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi”[2] deb ta’kidlab qo’yilgan.

Shu o’rinda maqolamizning ilmiy asosiga to’xtaladigan bo’lsak ta’lim jarayonining sharqonaligi ta’lim va tarbiyada ko’rinadi. Bu so’zimizga misol qilib quydag‘i O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quydag‘i so’zlarini keltirib o’tamiz: «Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi»[3]

O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’limdagi o’ziga xos jarayonlarneizi ta’lim va tarbiyaning uzlusiz davom etishi g’oyasiga asoslanadi. Bizga ma’lumki, bizga mansub bo’lgan Sharq xalqlari maktabga, umuman, ta’lim muassasasiga, bolaga faqat ta’lim beruvchi, ilm-u hunar o’rgatuvchi maskan deb emas, balki inson shaxsini tarbiyalovchi, uni har tomonlama barkamol etib shakllantiruvchi qutlug’ dargoh deb ham qaragan. Chunki aqli, bilmlı bo’lish insonning bir ziynati hisoblansa, mana shu bilm va aqlni ezgulik yo’lida ishlatish, eng muhimi – odob-axloqni, mehr-oqibatni, insoniylikni hayotiy e’tiqod deb bilish kishining ma’nnaviy ko’rki sanaladi.

O’zbekistonda qilinayotgan ta’lim islohatlar zamonaviy ruh o’zida mujassamlashtirgan bo’lsada, lekin sharqona tarbiya tizimini ham o’zida mujassamlashtirgandir. Shuning uchun ham sharqona tarbiyani zamonaviy tarbiya bilan mujassamlashtira olgan jadidlariimizdan hisoblangan Abdulla Avloniy o’zining —Turkiy guliston yoxud axloq asarida tarbiyaning uch turi haqida ma’lumot berib o’tgan. Ularga badan tarbiyasini, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi kabi tarbiya turlarini misol qilib takidlangan. Hozirgi zamonaviy ta’limda bu jihatlarga ham e’tibor berilayotganligi o’tgan asrda jadid bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan ta’lim tizimi qanchalik to’g’ri ekanligini isbotlab

bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, sharqona ta’lim tizimining tarbiyaviy jihatlari hozirgi kunda nafaqat sharq xalqlari tomonidan balki Ovropa xalqlari tomonidan ham qizg’in va muzokalarlarga boy tarizda o’rganilmoqda. Sharqona ta’lim-tarbiya tadqiqotlari natijasida erishilgan yutuqlar butun dunyonlari lol qoldirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarga murojaat —Oyna jurnali, 1914-yil, 41-son
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston. T.2023. 50-modda.
3. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 62-bet.
4. Abdulla Avloniy —Turkiy guliston yoxud axloq—Print Line Group|| T. 2023.